

**ALISHER NAVOIY QO'LYOZMALARINI USTIDA ISHLASHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI**

**Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiy qo'yozmalari matni ustida ishlashda dars samaradorligini oshirish maqsadida foydalilaniladigan interfaol metodlar va ularning qo'llanilish o'rnlari xususida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, qo'lyozma, matn, interfaol metod, ta'lim sifati, dars samaradorligi, nazariy bilim, tabdil, lug'at, xattot, husnixat.*

*"Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"<sup>29</sup>*

***Sh.M.Mirziyoyev***

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladligan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim -tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda<sup>30</sup>. Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rqli, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi (o'quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

<sup>29</sup> Mirziyoyev Sh. "Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi.  
<https://www.sbtue.uz/uz/news/view/324#>

<sup>30</sup> Ro'ziyeva D va b. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi.-T., 2013. -B.3.

Bizga ma'lumki, xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, ruhiy olami, ijodkorlik salohiyati arab yozuvida aks etgan. Shunday ekan, o'z xalqi tarixini, o'tmish adabiyotini bilish, uni chuqurroq idrok qilish istagida bo'lgan har bir talaba arab alifbosи asosidagi eski o'zbek imlosidan boxabar bo'lishi, mazkur yozuvning o'ziga xos jihatlarini obdon o'rgangan bo'lishi zarur<sup>31</sup>.

"Eski o'zbek vozushi" bo'yicha bakalavr kursining maqsad va vazifalari o'zbek tili va adabiyotining har tomonlama taraqqiy topishida ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosini, ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi o'nlab mumtoz adiblarimizning umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rinni olgan o'lmas asarlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, talabalarda ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, eski o'zbek vozushi imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatishdan iboratdir.

Biz ushbu maqolamizda, Alisher Navoiy qo'lyozmalari matni ustida ishlashda dars samaradorligini oshirishga yordam beradigan "Kichik guruhlarda ishlash", "Asalari galasi" kabi metodlaridan foydalanishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Kichik guruhlarda ishlash talabalarining darsda faolligini ta'minlaydi<sup>32</sup>, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkon tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi. 1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada talabalar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi. 2. Zaruriy asos yaratish. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarini oldindan egallagan bo'lishlari kerak. 3. Guruhni shakllantirish. Odatda har bir guruhda 4-5 ta talaba bo'ladi (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Bu jarayonda 4 ta guruh shakllantiriladi: 1-guruh "Navoiyshunoslar" guruh, 2-guruh "Sharqshunoslar" guruh, 3-guruh esa "Matnshunoslar" guruh, 4-guruh "Maslakdoshlar" bo'lishi mumkin. Guruhda ishlash talabalar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. 4. Aniq yo'-yo'riqlar ko'rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va hajm jihatdan ko'p bo'limgan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko'riladi.

Kichik guruhlarga quyidagicha (bir xil) vazifalar yuklatiladi:

1-topshiriq. Berilgan matnni ifodali o'qing va siyohli qirqma ruchkada husnixat asosida ko'chirib yozing.

<sup>31</sup> Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozushi. –T., 1989. -B. 6.

<sup>32</sup> Musayeva M.E., Boymurodova G.T., Otaboyev A.K., Po'latova D.T. Ta'llim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar.-T., 2016.-B.93.

2-topshiriq. Matnni joriy imloga tabdil qiling.

3-topshiriq. Matnda uchraydigan o'zlashgan qatlamga oid so'zlar qatorini tuzing.

4. Alisher Navoiy hikmatlarining mazmuniga mos keladigan o'zbek xalq maqollaridan namunalar keltirish.

Guruhlarga topshiriq quyidagicha taqsimlanadi:

-har bir guruh a'zolaridan bittadan talaba Navoiy hikmatlaridan namunalarni husnixat asosida siyohli qirqma ruchkada 3x4 formatdagi qog'ozga yozadi. Bu topshiriq kim tomonidan bajarilishini guruh a'zolari kelishgan holda hal etishadi. Belgilangan talaba tomonidan Navoiy hikmatlaridan namunalar belgilangan vaqt mobaynida husnixat asosida ko'chirib yoziladi.

- har bir guruh a'zolaridan bittadan talaba hikmatlarni joriy imloga tabdil qiladi;

- har bir guruh a'zolaridan bittadan talaba esa o'zlashgan qatlamga oid so'zlar qatorini tuzadi.

1-topshiriq asosida har bir guruhdan "xattot" deb tan olingan talaba quyidagi namuna asosida o'zlariga taqdim etilgan hikmatlardan namunalarni husnixat asosida ko'chirib yozadi:

#### نواي حکمت لارى

دانه درنى قولاق ازاري بىل

سوزنى قولاق نىنگ دور شھوارى بىل

كعبه كه عالم نىنگ اولىوب قبله سى

قدرى يوق انداقكه كونگول كعبه سى

چرح كه مهر آلتونىن ايلار نهان

يوزىنى آنینگ قرا ايلار جهان

ترک ادب دين برى كولگودورور

كولگو ادب ترکىگا بىلگودورور

كولگوكه اوز حىدىن اولىدى ييراق

بىغلاماق اندىن كوب اирور يخشيراق

Keyingi bosqichda kichik guruh talabalari 2-topshiriq asosida Navoiy hikmatlaridan namunalarni joriy imloga tabdil qiladi. Masalan:

*Navoiy hikmatlari*

*Dona durni quloq ozori bil,*

*So'zni quloqning durri shahvorin bil.*

*Ka'baki olamning o'lub qiblasi,*

*Qadri yo'q andoqli ko'ngul ka'basi.*

*Charhki mehr oltunin aylar nihon,*

*Yuzini oning qaro aylar jahon.*

*Tarki adabdin biri kulgudurur,*

*Kulgu adab tarkiga belgidurur.*

*Kulguga o'z haddidin o'ldi yiroq,*

*Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq.*

3-topshiriq asosida esa o'zlashgan qatlamga oid so'zlar qatori tuziladi. Masalan:

Lug'at

شەوار - f. Yuksak, yirik, a'lo darajali.

نهان - f. Yashirin, mahfiy.

4-topshiriq. Navoiy hikmatlarining mazmuniga mos keladigan o'zbek xalq maqollaridan namunalartalabalar tomonidan keltiriladi. Masalan:

1. *Yaxshi so'z boldan shirin.*
2. *Yaxshi so'z — yurak yogi,*  
*Yomon so'z — yurak dog'i.*
3. *Har mevaning po'chog'i bor,*  
*Har so'zning o'lchovi bor.*

5.Qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'ilsa, guruqlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga tazyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'ilsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozib boriladi. Muhimi guruh yechimining asoslanishini aniqlashtirib olishdir. Agar vaqt yetarli bo'lsa, u yoki bu fikrni umumlashtirishda guruqlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishslash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi. Talabalar bilimini baholashda ularning fiklash qobiliyati, husnixati, matnni ifodali o'qishi, hamjihatlikda ishlashi albatta inobatga olinadi.

**"Asalari galasi" metodi<sup>33</sup>**

"Asalari galasi" metodi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiyligi yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo'llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Kichik guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma'lum qilinadi. Mashg'ulot yakunida masalaning eng maqbul yechimi tanlab olinadi.

Mashg'ulot jarayonida metodni qo'llashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-mavzu bo'yicha muammo (Navoiy qo'lyozmalaridan namunalar matni ustida ishslash) aniqlanadi;

-talabalar 3 ta kichik guruhlarga biriktiriladi;

-kichik guruhlarga alohida yoki umumiyligi topshiriqlar (Navoiy qo'lyozmalaridan namunalar ("Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy", "Hayrat ul-abror" dostonidan parcha)ni husnixat asosida ko'chirib yozish, matnni joriy imloga tabdil qilish, hikmatlarda uchraydigan arabcha, forscha-tojikcha so'zlar lug'atini tuzish kabi turli xil topshiriqlar va h.k.) beriladi;

<sup>33</sup> Musayeva M.E., Boymurodova G.T., Otaboyev A.K., Po'latova D.T. Ta'lrim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar.-T., 2016.-B.61.

- topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi (maksimal vaqt 35-40 daqiqa);
- belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z topshiriqlarini navbatma-navbat namoyish qiladilar;
- eng maqbul deb topilgan topshiriq tanlab olinadi;
- bu metodda ham o‘qituvchi guruhi ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “Eski o‘zbek yozuvi” fanidan olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar avvalo, talabalarning o‘qituvchi hamkorligi va nazoratida olib boradigan o‘quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan mashg‘ulot shaklidir. Dars mashg‘uloti davomida bajariladigan ishlarning o‘qituvchi nazorati ostida turli xil interfaol metodlardan foydalangan holda amalga oshirilishi mavzuga oid ilmiy xulosalarning talabalar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotda asosan mavzu bo‘yicha bajarilishi ko‘zda tutilgan amaliy ishlar nazariy masalalarni mustaqil tahlil qilishga qaratiladi. Shuning uchun har bir mashg‘ulotda talaba mustaqil izlanish olib borishi, berilgan misollarni o‘zaro qiyoslashi, tahlil qilishi, husnixat mashqlari ustida ishlashi, izohli lug‘atlardan unumli foydalanishi, toshbosma va qo‘lyozma matnning farqiga borishi, harflarning yozilish o‘rni va shakli haqida chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, umumiyl xulosa chiqarishi hamda o‘z fikrini to‘liq bayon eta olishi lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida do‘stona munosabat o‘rnatalishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishslashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh. “Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi. <https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/324#>
3. Abdullayev F., Shermuhammedov T., Xalilov L., Xalilov A. O‘qish kitobi. - Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994 y.
4. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G‘oziev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: “Ijod” nashriyoti, 2006 y.
5. Is’hoqov F. Eski o‘zbek tili va yozuvi. -Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995 y.
6. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
7. Musayeva M.E., Boymurodova G.T., Otabayev A.K., Po‘latova D.T. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar.-T., 2016.-B.61.
8. Ro‘ziyeva D va b. Interfaol metodlar: mohiyati va qo llanilishi.-T., 2013. -B.3.